

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
8. Jiyanmuratova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLIHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Kaxarova Nilufar,

O‘zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrasida tayanch doktoranti,
e-mail: kaxarovanilufar869@gmail.com

SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800156>

ANNOTATSIYA

Maqola jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining eng og‘ir oqibatlaridan biri – boshqa davlatlarda ishga joylashish maqsadida davlat chegaralarini kesib o‘tayotgan xalqaro migrantlar orasida ayollar soni va salmog‘ining oshishiga bag‘ishlangan. Maqolada ayollar mehnat migratsiyasi muammolari hamda imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallif migratsiyaning zamonaviy xususiyatlaridan biri – migrantlar orasida ayollar salmog‘ining ortishi, migratsiyaning feminizatsiyasi va undan keyingi muammolar va istiqbollarga katta e‘tibor bergan. Migratsiyaning feminizatsiyasi qabul qiluvchi va jo‘natuvchi mamlakatlar uchun muhim oqibatlarga olib keladi. Migratsiya oqimlarida ushbu toifadagi migrantlarning mavjudligi ularning xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda migratsiya va ijtimoiy siyosatni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: ayollar, migratsiya, migrant, feminizatsiya, ijtimoiy yo‘naltirilgan boshqaruv, migratsiya jarayonlari, tashqi mehnat migratsiyasini qonunchilik bilan tartibga solish, migratsiyaning uyushgan shakllari, mehnat migratsiyasi tushunchasi, qonuniy migratsiya.

Kaxarova Nilufar,

Национальный университет Узбекистана
базовый докторант (PhD)
кафедры “Социология”
e-mail: kaxarovanilufar869@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ ЖЕНСКОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В ГОРОДСКОМ МЕГАПОЛИСЕ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена одному из самых серьезных последствий глобализации мировой экономики – увеличению количества и удельного веса женщин среди международных мигрантов, пересекающих государственные границы с целью поиска работы в других странах. В статье анализируются проблемы и возможности женской трудовой миграции. Большое внимание автор уделил одной из современных особенностей миграции - увеличению роли женщин среди мигрантов, феминизации миграции и вытекающим отсюда проблемам и перспективам. Феминизация миграции имеет важные последствия как для принимающих, так и для отправляющих стран. Присутствие этой категории мигрантов в миграционных потоках

требуется пересмотра миграционной и социальной политики с учетом их особенностей и потребностей.

Ключевые слова: женщины, миграция, мигрант, феминизация, социально-ориентированное управление, миграционные процессы, законодательное регулирование внешней трудовой миграции, организованные формы миграции, концепция трудовой миграции, легальная миграция.

Kaxarova Nilufar,
National University of Uzbekistan
basic doctoral student, (PhD)
of the Department of Sociologye
mail: kaxarovnilufar869@gmail.com

PROBLEMS AND OPPORTUNITIES OF FEMALE LABOR MIGRATION IN AN URBAN METROCOLIS

ABSTRACT

The article is devoted to one of the most serious consequences of the globalization of the world economy - the increase in the number and proportion of women among international migrants crossing state borders in order to find work in other countries. The article analyzes the problems and opportunities of female labor migration. The author paid much attention to one of the modern features of migration - the increasing role of women among migrants, the feminization of migration and the ensuing problems and prospects. The feminization of migration has important consequences for both receiving and sending countries. The presence of this category of migrants in migration flows requires a revision of migration and social policies, taking into account their characteristics and needs.

Key words: women, migration, migrant, feminization, socially oriented management, migration processes, legislative regulation of external labor migration, organized forms of migration, concept of labor migration, legal migration.

KIRISH

Inson evolutsiyasi yuzaga kelibdiki migratsion jarayonlar ko‘rinishlari ham paydo bo‘la boshlagan. Migratsiya (migratio, lat. – “ko‘chirish”) – degan ma‘noni anglatib, ichki va tashqi migratsion jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Migratsiya, mamlakat ichidagi aholining qayta joylashishi – bu aholining ichki migratsiyasi, bir mamlakatdan boshqasiga harakatlanishi - bu aholining tashqi migratsiyasi [1, – C.251].

Migratsion jarayonlar insoning kelib chiqishi kabi qadimiy ijtimoiy harakatlar bo‘lishiga qaramay, o‘zining global mazmun mohiyatini XXI-asrga kelib ko‘rsatdi. Xalqlarning yirik ko‘chishi yuzaga kelib keng ommalashganida migratsion jarayonlarning ham keltirib chiqaruvchi muammolarni, ham ko‘chish bo‘layotgan rivojlangan mamlakatlar uchun keltiradigan afzalliklari aniqlanib, sotsiologik kuzatuvlar va tadqiqotlar natijalarida tahlil qilindi va bu mavzuga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy ishlar ham uning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Biz “aholining misli ko‘rilmagan harakatchanligi davrida yashayapmiz, ularning kelib chiqishi mamlakatlari yoki mintaqalaridan tashqarida yashovchi odamlar soni har qachongidan ham ko‘proq. Migratsiya – bu shundayin hodisaki, barcha mintaqalardagi barcha mamlakatlarga ta‘sir qiladi. XXI-asrda keng ko‘lamli migratsiya muqarrar, zarur va maqsadga muvofiqdir” [2, – C.167].

METODOLOGIYA

Migratsion jarayonlarni tadqiq etishni birinchi bo‘lib chikago maktabi namoyondalari R.Park va boshqalar boshlab bergan. Bunga albatta XX-asrdagi “buyuk migratsiya” hodisasi ta‘sir qilgan. Migratsion jarayonlarga bag‘ishlangi bir qator ilmiy ishlar nashr ettirilgan. Ammo, o‘sha davrning yirik ilmiy tadqiqot ishi bu Znaninskiyning “Plosha dehqoni Evropa va Amerikada” nomli ilmiy ishi keng ommalashgan va bugungi kunda klassika hisoblanadi. Polshiyaning tub xususiyatlarini tasniflaganda, migratsiyaning sotsial mexanizmlari va tarixiy sabablari, shuningdek, AQSHga emigratsiyadan keyingi har bir shaxsning kechinlarini o‘rgangan holda, tadqiqotchilar polyaklar

assimilatsiyalashadi ammo “polshiya kelib chiqishidagi amerikaliklar” bo`lib qoladi, degan xulosaga kelganlar [3, – C.1-24].

1990-yillarning o`rtalaridan boshlab chet yel adabiyotida xalqaro mehnat migratsiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida ayollar migratsiyasini o`rganishga alohida e`tibor qaratildi. Natijada, ayollar mehnat migratsiyasining ko`plab jihatlari bo`yicha nisbatan katta miqdordagi yempirik va nazariy materiallar to`plandi. Migrant ayollar mehnatining o`ziga xos xususiyatlari va kelib chiqishi va boradigan mamlakatlari uchun ayol migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini haqida migrant ayollarning malakasidan kam foydalanish, ularning mezbun jamiyatlarda madaniy va ijtimoiy “chetlashtirilishi” haqida H.Zlotnik, Ye.Kofman, N.Payper P.R.Pessar, R.Merfi, F.Docquier va boshqalar yozishgan. Turli mamlakatlarda migratsiya qonunchiligining mavjud normalarini migrant ayollarning manfaatlariga rioya qilish nuqtai nazaridan tahlil qilish, shuningdek, migratsiya siyosatining “gender sezgirligini” oshirish bo`yicha tavsiyalar M.Boyd, L.Mora, K.Taborga, M. E. B.Siddiq kabi mualliflarning nashrlarini o`z ichiga oladi [4].

ASOSIY QISM

Migratsiyaning chiqish mamlakatiga ham, kirish mamlakatiga ham ta`siri jiddiy, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tizimlariga, shuningdek, aholining tarkibi va uning o`sish yoki pasayish dinamikasiga ham ta`sir qiladi. Aholining ichki va tashqi mehnat migratsiyasi jamiyat va davlatda sodir bo`layotgan etnopolitik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta`sir qiluvchi eng muhim ko`rsatkichlaridan biridir. Migratsiya oqimlarining ko`rsatkichlari bo`yicha jamiyatning ochiqligi va demokratiyasi darajasi, uning urbanizatsiya darajasi, iqtisodiyot va infratuzilma samaradorligi, rivojlanishning mintaqaviy nomutanosibliklari, millatlararo munosabatlarning holati bo`yicha tahliliy xulosalar qilish mumkin [5, – C.11].

Migratsion jarayonlarning davlatga ta`sirini oldindan tadqiq etish, uning salbiy oqibatlarini oldini olishga turtki bo`ladi. Buni amalga oshirishning eng samarali usuli esa migratsion jarayonlarni hisob qilishdir. Bugungi kunda, taxminan 281 million xalqaro migrantlar mavjud – dunyo aholisining 3,6 foizi. So`nggi yillarda xalqaro migratsiya ko`lami muttasil o`sib bormoqda, 2020-yilda dunyoda 1990-yilga nisbatan 128 million va 1970-yilga nisbatan uch baravar ko`p. Umuman olganda, odamlarning 60 foizdan ko`prog`i daromad va yaxshi hayot izlab Evropa va Osiyo mamlakatlariga boradilar. Evropada 87 million migrant yashaydi, Osiyo mamlakatlarida esa 86 million migrantlar yashaydi. Ulardan keyin Shimoliy Amerika, 59 million xalqaro migrantlar ishlaydi, bu barcha global migratsiya oqimlarining 21 foizini tashkil qiladi. Muhojirlarning 9 foizi Afrikaga, uch foizi Okeaniya mamlakatlariga to`g`ri keladi [6].

Mamlakatlar kesimida mehnat migratsiyasining harakatiga qaraydigan bo`lsak, xalqaro muhojirlarning 40 foizi Osiyoning oltita davlatidan: Hindiston, Xitoy, Bangladesh, Pokiston, Filippin va Afg`onistondan kelgan. Meksika Hindistondan keyin xalqaro muhojirlar orasida ikkinchi o`rinda, Rossiya esa uchinchi o`rinda turadi.

Aholini harakatlanishini hisob qilish va, ayniqsa, migratsion jarayonlarni o`lchash bu murakkabdir va shunga qaramay O`zbekiston Respublikasida migrant aholini hisob qilish tizimi faoliyat olib boradi. 2021-yildan boshlab Respublikada tashqi migratsiya tizimi butkul isloh qilingan [7].

Xalqaro migratsiya jarayonlarini tadqiq etishda, ayollar mehnat migratsiyasiga ham alohida e`tibor qaratiladi. Ayollarning mehnat migratsiyasi bir necha shakllarda mavjud: qonuniy, noqonuniy va yarim qonuniy. Qonuniy shakl – bu ayollarning mehnat migratsiyasining eng yaxshi, ammo eng kam sonli shakli, bu yerda ayollar qabul qiluvchi mamlakatlarda ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalarini imzolash orqali to`liq xavfsiz bo`lishadi. Noqonuniy shakl ayollarning mehnat migratsiyasining eng ko`p sonli va xavfli shakllaridan biri bo`lib, ayollar noqonuniy yoki qisqa muddatli turistik vizalar bilan qabul qiluvchi davlatlar hududiga kirganda va ular faqat iqtisodiyotning noqonuniy yoki yarim qonuniy sektorlarida ishlashlari mumkin, chunki ularning qabul qiluvchi mamlakatlardagi noqonuniy mavqei tufayli ular ayniqsa zaif va ko`pincha xo`rlilik, zo`ravonlik, zulmga duchor bo`lishadi.

Yarim qonuniy shakl – bu ayollarning mehnat migratsiyasining eng ko`p sonli va xavfli shakllaridan biri bo`lib, unda ayollar kelib chiqish mamlakatlaridan chiqishdan oldin ham qabul

qiluvchi mamlakatlarda qonuniy ish va rasmiylashtirishni va'da qilishlari mumkin, ammo chegarani kesib o'tishda ular pasportlarini olib qo'yishadi va ular amalda odam savdosi qurboniga aylanishadi. Mehnat yoki jinsiy qullikka tushib qolishadi [8].


Ayollarning mehnat migratsiyasining sabablari nimada? Ayollar migratsiyasi tarqalishda davom etmoqda, chunki:

birinchidan, dunyoning ko'plab mamlakatlarida aholi qarib bormoqda va tobora ko'proq qariyalarga g'amxo'rlik kerak;

ikkinchidan, ba'zi mamlakatlarda aholining farovonligi o'sib bormoqda va uy xo'jaliklari uy bekalari, enagalar, oshpazlar va boshqalarni yollashga qodir. Ayollar migratsiyasi – bu ayollar aholisini ish topish imkoniyati mavjud bo'lgan ba'zi mintaqalar va mamlakatlardan boshqalarga ko'chirish jarayoni. Shu bilan birga, ayollarning mehnat migratsiyasining asosiy sabablari ishsizlik, qashshoqlik, oiladagi nizolar, qarzlilar, bolalarni tarbiyalash va o'qitish uchun mablag'larga ehtiyoj, o'z uylarining yo'qligi, yaqinlarini davolash uchun mablag'larga ehtiyoj va boshqalardir [9].

Xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu uning – feminizatsiyalashuvidir. Og'ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va bandlik tarkibining transformatsiyalashuvi kabi jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, xususan xizmat ko'rsatish sohalarning rivojlanishi global mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan ayollar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va rivojlanishiga turtki berdi. Bandlik tarkibidagi bunday transformatsiyalashuv bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishning kamayishi va kishilarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligini ortishi qariyalar sonining ko'payishiga va ularni parvarishlovchilarga, mazkur mamlakat aholisining moddiy farovonligini yaxshilanishi va ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokining faollashuvi esa, uy xizmatchilariga bo'lgan talabning ortishiga olib keldi. Ayollar mehnat migratsiyasining rivojlanishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, Rossiyadan Qirg'izistonga yo'naltirilgan mehnat migratsiyasining 40%ini, Tojikiston va O'zbekistonda esa, 20%ga yaqini ayollar mehnat migratsiyasi tashkil etadi [10].

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ayollar mehnat migratsiyasining sabablari mamlakatlar kesimida farqlanadi. Masalan, tojikistonlik va qirg'izistonlik ayol mehnat migrantlari uchun daromad topish, oila qurish va shahsiy hayotini yo'lga qo'yish kabi omillar, boshqirdistonlik ayol migrantlar uchun esa, farzandlariga ta'lim va tarbiya berish, uy-joy qilish, qarzlarda qutilish, yaqin kishilarini davolatish uchun daromad topish kabi holatlar ularning boshqa mamlakatga borib ishlari uchun turtki bermoqda. sotsiologik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, respondentlarning 84% ayollar mehnat migratsiyasi ularning hayoti va karerasi uchun ijobiy ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlasa, respondentlarning 62,4% esa, mazkur jarayon respicient mamlakat va hudularga ijobiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlaganlar 2021-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab migrantlar soni 281 million kishini, ularning 48%ini ya'ni, 135 milionini ayol migrantlar tashkil qiladi [11].



Manba: Key global migration figures, 2019-2022. IOM UN migration 2022, October 13

Dunyo bo‘ylab aynan mehnat migrantlari esa, 169 million kishini tashkil qilgan bo‘lib, ularning 41,5%ini, ya’ni 70,1 millionini ayollar tashkil qilgan. Jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushini mintaqalar kesimida tahlil qilar ekanmiz, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidan tashqari barcha mintaqalarda mazkur ko‘rsatkichning o‘sganini guvohi bo‘lamiz. Xususan, 1990-2020-yillar orasida Shimoliy Amerika mintaqasida 51,1% dan 51,8% gacha, Afrika mintaqasida 46,7% dan 47,1% gacha, Janubiy Osiyo mintaqasida 47,8% dan 49% gacha, Lotin Amerikasi mintaqasida 48,8% dan 49,5% gacha, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mintaqasida o‘shish, 44,1% dan 46,8% gacha o‘shish, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida esa 48,6% dan 41,8% ga qisqarish kuzatilgan [12].

Eng ko‘p ayol mehnat migrantlariga ega top 5 ta mamlakat

AQSh	26,2 million
Germaniya	7,9 million
Rossiya	5,9 million
Buyuk Britaniya	4,9 million
Fransiya	4,4 million

Manba: Migration data portal// Dashboard sub-pages | Migration data portal

Ayol migrantlar asosan, uy xizmatlari, qishloq xo‘jaligi sohasi, mehmonxona biznesi, sog‘liqni saqlash va ta‘lim kabi ijtimoiy sohalarda faoliyat ko‘rsatadilar. Masalan, ular Yevropada asosan, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda faoliyat ko‘rsatadilar. Xususan, Ispaniya va Gresiyada mexmonxona biznesida, Buyuk Britaniyada tibbiyot sohasida, Italiyada ta‘lim sohasidagi ayol migrantlarning ulushi yuqori. Yevrostat ma‘lumotlariga ko‘ra, Yevropadagi 25-54 yoshdagi oliy ma‘lumotli migrant ayollarning 30%dan ortig‘i yuqori malakaga ega bo‘lib, ular fan, texnologiya, matematika va tibbiyot kabi STEMM sohalarda bo‘yicha mutaxassis hisoblanadilar [13].

Bunday ayol migrantlar orasida bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan tajriba va ko‘nikmalarning mavjudligi ularning zamonaviy va yirik kompaniyalardagi bo‘sh ish o‘rinlariga bo‘lgan intilishlarini oshiradi. Oliy ta‘limga ega bo‘lgan mehnat qilish yoshidagi ayol migrantlar mintaqalarda taqsimlanishiga e‘tibor qaratsak, yuqori daromadli mamlakatlarda ularning ta‘lim darajasi yuqoriroq ekanligiga guvoh bo‘lamiz [14].

Ammo, shu o‘rinda, ayol mehnat migrantlari orasida xorij mamlakatlarida o‘rta va yuqori malakani talab qiluvchi sohalarda faoliyat ko‘rsatayotganlar bilan bir qatorda norasmiy ravishdagi uy xizmatchisi, enaga, qariyalar parvarishlovchi past malaka talab qiluvchi ishlarda ish beruvchiga butunlay qaram bo‘lib qolib ishlayotganilari ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Eng oddiy kasblarda mehnat qiluvchi ayol migrantlarning ulushini mintaqalar kesimidashi ulushi

<i>Mamlakatlar</i>	<i>Eng quyi ko‘rsatkich</i>		<i>Eng yuqori yuqori ko‘rsatkich</i>	
Yuqori daromadli mamlakatlar	Yaponiya	8,1%	Saudiya	74%
O‘rta daromadli mamlakatlar	Mongoliya	2,4%	Livan	88%
Quyi daromadli mamlakatlar	Gvineya	2%	Kosta Rika	45%

Ayol migrantlarning o‘z vatanlariga pul o‘tkazmalari katta xajmni tashkil qilmasada, ularning o‘tkazmalarining asosiy qismi sog‘liq, ta‘lim, oila va jamiyat taraqqiyoti uchun sarflanadi. Shu

o'rinda ayol mehnat migrantlarining tajriba, bilim, ijtimoiy, siyosiy va madaniy normalar kabi ijtimoiy o'tkazmalari pul o'tkazmalaridan ko'ra ko'proq ahamiyat kasb etishiga ham e'tibor berish lozim. Chunki, ayollarning xorijda ega bo'lgan bilimlari, g'oyalari, tajriba va texnologiyalar bo'yicha ko'nikmalari ularning oilalari va jamiyatdagi mavqeilarini ortishiga va mazkur muhit ishtirokchilarining dunyo qarashlarida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishini ham unutmash kerak. Ayollar erkak migrantlarga nisbatan kamroq ish haqi olsalarda, ammo erkaklarga nisbatan daromadlarining katta qismini yuboradilar, shuningdek, ularning transfer to'lovlari ham yuqoriroq. Migrantlarning pul o'tkazmalarining 25,8% ayollar ulushiga to'g'ri keladi [15].

Ko'pchilik ayol migrantlar past malakali ishlarda band bo'lsa-da, ularni "pastmalakali", deb hisoblash noo'rin. Ayol migrantlarning asosiy qismi kasbi va malakasiga mos kelmaydigan ish bilan band bo'lmoqda. Chunki, ularning kasbi va malakasi mehnat bozorida kerakli darajada baholanmagan yoki tan olinmagan. Bu masala "malakaning yo'qotilishi" yoki "aqlni boy berish"ga olib keluvchi omil bo'lmoqda. Ayol migrantlarning mehnati arzon baholanishi mamlakatda mehnat bozorining gender tuzilishi natijasi hisoblanadi.

Shuni aytish mumkinki, aksariyat o'rtadan quyi bo'lgan hamda quyi daromadli mamlakatlarda ayol migrantlar mehnat bozoridagi diskriminatsiya, ishdagi ekspluatatsiya va zo'ravonlik, sog'liqni saqlash va ta'limdan foydalanishdagi to'siqlar, sudlovdagi adolatsizliklar kabi muammolarga duch kech kelishda davom etmoqdalar. Odam savdosi qurbonlari ichida hali ham ayollarning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, odam savdosi qurbonlarining 65%ini ayollar, ya'ni 46%ini kattalar va 19%ini qizlar tashkil qiladi [16]. Katta yoshdagi qurbon ayollarning asosiy qismi Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mintaqalarida foliyat ko'rsatsa, qiz bolalarning qurbon bo'lishi ko'proq Osiyo mintaqasida uchraydi. Yuqoridagi holatlar ayollar mehnat migratsiyasi muammosini kun tartibining dolzarb masalasi sifatida qolishini va mazkur jarayon bilan bog'liq muammolarni oldini olishda xalqaro va mintaqaviy hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bora namoyon etadi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 2,5 millionga yaqin fuqarolarimiz chet el davlatlarida mehnat migranti sifatida faoliyat yuritmoqda. Shulardan 600000 nafarini ayollar tashkil qiladi [17]. 2022-yilning 9 oyida 27,2 ming nafar fuqaro xorijga xavfsiz, manzilli va tashkillashtirilgan tarzda ishga yuborildi, shundan 472 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi.

Hududlar kesimida Samarqand va Toshkent viloyatlari, Toshkent shahar hamda vodiy hududlari ayol-mehnat migrantlarni yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Bitta Samarqand viloyatidan 90000 nafar dan ortiq ayol mehnat migranti sifatida xorijga chiqib ketgan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini tanlash, tayyorlash, moslashtirish tadbirlarini o'tkazish va xorijda ishga joylashtirish jarayonlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilish orqali ularga xorijda mehnat faoliyatini olib borishga doir huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashish Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda, tashqi mehnat migratsiyasiga ayollarni tayyorlash va undan qaytganidan so'ng moslashtirish mexanizmlari qay darajada amalga oshirilayotgani muhim masaladir.

O'zbekistonda xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimi asosida quyidagi yo'nalishlarda ishlar tashkillashtirilgan bo'lib, ular, Birinchidan, vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni kasbga va chet tillariga o'qitish bo'yicha: xorijga ishlash uchun ketmoqchi bo'lgan fuqarolarni kasbga va chet tillariga o'qitish bo'yicha Bandlek va mehnat munosabatlari vazirligi tizimida 17 ta "Ishga marhamat" monomarkazi hamda 59 ta kasb-hunarga o'qitish markazi faoliyati yo'lga qo'yildi; Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 26 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari bazasida qisqa muddatli kasb-hunarga va chet tillariga o'qitish kurslari tashkil etildi [18].

"Ishga marhamat" monomarkazlariga 11726 nafar, kasbga o'qitish markazlariga 17319 nafar, qurilish sohasi mutaxassislarini tayyorlash markazlarida 4568 nafar, boshqa vazirlik va idoralar ta'lim muassasalariga 4025 nafar, qisqa muddatli kurslarga 917 nafar, kasbga o'qitish maskanlariga 562 nafar hamda nodavlat ta'lim muassasalariga 1911 nafar fuqaro jalb qilingan bo'lib, ularning 19574 nafari o'qish jarayonini yakunlagan.

Birinchiidan, ushbu jarayonda chet ellik ish beruvchilar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan kasb-hunar va chet tillariga o'qitish markazlari xizmati beqiyos bo'ldi. Xususan, Shveysariyaning "Globogate Recruiting GmbH" tashkiloti bilan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasida imzolangan hamkorlik shartnomasiga asosan O'zbekiston fuqarolarini Germaniya va Yevropa mamlakatlariga vaqtinchalik mehnat faoliyatiga jalb qilish bo'yicha 10 oylik dastur asosida loyihalar amalga oshirilmoqda;

Germaniyaning "Nova Agency" va "OPASCA GmbH" tashkiloti bilan imzolangan hamkorlik shartnomalariga muvofiq, Toshkent, Andijon, Buxoro, Samarqand va Urganch shaharlarida O'zbekiston fuqarolarini 10 oylik dastur asosida nemis tiliga o'qitish va Germaniyaga ishga jalb qilish bo'yicha kelishuvga erishilgan;

Yaponiyaning "Nippon Educational Academy" kompaniyasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan "Yapon tili va kasbiy malaka" test markazi hamda "Yume" o'quv markaziga O'zbekiston fuqarolari yapon tili, qariyalarni parvarishlash va qishloq xo'jaligi sohalarini bo'yicha o'quv kurslariga jalb qilingan;

Rossiya Federatsiyasining 11 ta subyektida ushbu davlatda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston fuqarolari uchun Xalqlar do'stligi universiteti hamda "WorldSkills Russia" ittifoqi bilan hamkorlikda rus tiliga va kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil etilgan.

Ikkinchiidan, fuqarolarni tashkillashtirilgan holda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish. Xususan, 2021-2022-yillarda O'zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish bo'yicha 14 ta (RF, Latviya, Polsha, Yaponiya, Bolgariya, Germaniya, Finlyandiya, Litva, Kanada, Serbiya, Buyuk Britaniya, Xorvatiya, Chexiya va Qozog'iston) xorijiy davlatning 77 ta ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan shartnomalar tuzilgan.

Uchinchiidan, mehnat migrantlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. Mazkur yo'nalishdagi ishlar O'zbekistonning xorijdagi diplomatik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va uning xorijdagi vakolatxonalarini tomonidan olib boriladi [19].

2022-yilning 9 oyida 207000 nafar yurtdoshimizga huquqiy, moddiy va ijtimoiy yordamlar ko'rsatilgan. Shundan, xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlar:

112 nafar "birgamiz.com" elektron platformasi orqali murojaat qilgan fuqaroga 6,1 ming AQSh dollari miqdorida bir martalik moddiy yordam (BHM 2 baravari) berilgan; 679 nafar xotin-qizga huquqiy, 1,7 ming nafariga ijtimoiy yordamlar ko'rsatilgan; 20,5 ming nafar mehnat migrantiga diplomatik vakolatxonalar, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining "Call-markazi", filiallari va vakolatxonalarini tomonidan axborot va maslahat xizmatlari ko'rsatilgan.

To'rtinchiidan, O'zbekistonga qaytib kelgan mehnat migrantlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash. Xususan, 2022-yili 100000 dan ortiq ayol mehnat migrantlari vatanga qaytib kelgan bo'lib, mehnat organlari yordamida ularga bandlik xizmatlari ko'rsatilgan. Bandlik xizmatlari doimiy va vaqtinchalik ish o'rinlariga joylashtirish, tadbirkorlikka jalb qilish va kredit ajratishga ko'maklashish, subsidiya ajratish, kasb-hunarga o'qitish va qayta tayyorlash kabilarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Tadbirkor mehnat migranti" loyihasi doirasida xorijdan qaytib kelgan fuqarolarga tadbirkorlik va moliyaviy savodxonlikka o'qitilmoqda hamda sertifikatlar berilmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2022-yil 31-martda "Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qo'shma qarori tasdiqlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyalari mablag'lari hisobidan mehnat migrantlarining oilalariga moddiy yordam va yo'llanmalar berilishi nazarda tutilgan [20].

XULOSA

O'zbekistonda migratsiyani tartibga solish, xususan, qonuniy va tartibli mehnat migratsiyani tashkillashtirish, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish, shuningdek, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijdagi vatandoshlar bilan hamkorlikni ta'minlash yo'nalishlarida huquqiy asoslar yaratilmoqda. Migratsiya jarayoni son jihatdan dinamik xususiyatga

ega bo‘lish bilan bir qatorda, uning sifat ko‘rsatkichi, ya’ni tarkibi o‘zgaruvchidir. So‘nggi yillarda migratsiya jarayonida xotin-qizlarning ulushi ko‘payayotganini kuzatishimiz mumkin. Ayol migrantlarning mehnati ko‘pgina sohalarda, asosan, xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ishlarni bajarishda keng qo‘llanmoqda va bunga ehtiyoj oshib bormoqda.

Shu bois ilgari xalqaro migratsiya sahnasida ayollar o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan, erkak migrantning oila a‘zosi sifatida olib qaralgan bo‘lsa, hozirda ularni mehnat migrantlarning mustaqil guruhi sifatida ularga nisbatan “unattached migrants”, ya’ni “biriktirilmagan” maxsus atama qo‘llanmoqda. Shuningdek, migratsiya sohasidagi tadqiqotlar uni mukammal va qarama-qarshiliklari mavjud jarayon sifatida tan oladi. Ayol migrantlarga nisbatan ko‘pgina kamsitish, muammolar va noqulay sharoitlar bo‘lishi bilan birga, ularning aksariyat qismi migratsiyani o‘zining yashash sharoitini yaxshilash, iqtisodiy mustaqillik va shaxsiy o‘shish uchun imkoniyatlar eshigi deb biladi. Migratsiya gender tengsizlik bilan kurashish, gender o‘rindan voz kechish va gender qoliplarni sindirish hamda ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Паточкина Н.А., Кочнева Е.В. Миграция и преступность // Вестн. Совета молодых ученых и специалистов Челябинской области. 2015. № 1 (8).Платон. Лисис, 214а. Полн.собр.соч. – М., 1929. Ч.1У. – С.251.
2. Генеральная Ассамблея Организации Объединенных Наций 2013 года. Меморандум о позиции МОМ. – С.167.
3. Ганжа, А. О. К истории создания работы У. Томаса и Ф. Знанецкого «Польский крестьянин в Европе и Америке» // Социологические исследования. - 2007. - №7. – С.1-24.
4. Илимбетова А.А. Социально-экономические последствия женской трудовой миграции в Россию. – М., 2013.
5. Комарова О.Д., Тишков В.А. Миграция и миграционная политика // Миграции и новые диаспоры в постсоветских государствах / Отв. ред. В. А. Тишков. М.: Ин-т этнологии и антропологии РАН, 1996. – С.11.
6. Исакулов Ш. Н. Методические подходы по оценке результативности и эффективности деятельности органов государственного управления / Ш. Н. Исакулов // Жамият ва бошкарув. – 2018. — № 1. – С. 29.
7. Мажидов Х. Наблюдая за ЕАЭС: перспективы трудовой миграции из Узбекистана / Х. Мажидов. – Ташкент : Центр экономических исследований и реформ, 2021.
8. Исакулов Ш. Н. Проблемы выработки идеологического иммунитета трудовых мигрантов Республики Узбекистан / Ш. Н. Исакулов // Общественное мнение и права человека. – 2018. – № 1. – С. 59.
9. Салимов Ш. Трудовая миграция: вопросы сотрудничества с международными организациями и совершенствование национального законодательства / Общество и управление. – 2020. – № 3(89). – С. 175–180.
10. Варшавер, Рочева, 2015; Рочева 2020.
11. Пескова, Абреу Бастос, 2014.
12. Key global migration figures, 2019-2022. IOM UN migration 2022, October 13.
13. Daniela Bolzani,Francesca Crivellaro,Rosa Grimaldi. Highly skilled, yet invisible. The potential of migrant women with a STEMM background in Italy between intersectional barriers and resources// <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1111/gwao.12719>
14. Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers//Who are the women on the move? A portrait of female migrant workers – ILOSTAT/
15. Bisong A. Regulating Recruitment and Protection of African Migrant Workers in the Gulf and the Middle East. The European Centre for Development Policy Management (ECDPM). 2021. Available online: <https://ecdpm.org/wp-content/uploads/Regional-Solutions-Regulating->

- Recruitment-Protection-African-Migrant-Workers-Gulf-Middle-East-ECDPM-Discussion-Paper-292-2020.pdf (accessed on 12 January 2022)/
16. Kodoth, P. In the Shadow of the State: The Recruitment and Migration of South Indian Women as Domestic Workers to the Middle East; International Labour Organisation: Geneva, Switzerland, 2020.; Bisong, A. Regulating Recruitment and Protection of African Migrant Workers in the Gulf and the Middle East. The European Centre for Development Policy Management (ECDPM). 2021. Available online: <https://ecdpm.Org/wp-content/uploads/Regional-Solutions-Regulating-Recruitment-Protection-African-Migrant-Workers-Gulf-Middle-East-ECDPM-Discussion-Paper-292-2020.pdf>(accessed on 12 January 2022).
 17. International migration 2020: report/ Department of Economic and Social Affairs Population Division/ United Nations. New york, – 2020. pp. 2-3, 10. www.un.org, un.org/development/desa/pd/#UNPPopulation IOM Members and Observers, as of April 2021. https://www.iom.int/sites/g/files/tmzbd1486/files/about-iom/memebers_observers_en.pdf
 18. Аҳоли миграцияси (киши) // <https://gender.stat.uz/uz/327-asosiy-ko-rsatkichlar/8734-demografiya> // file:///C:/Users/DR/Desktop/777777/Aholi%20migratsiyasi.pdf.
 19. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазири Нозим Хусановнинг “2022 йилда янги иш ўринларини ташкил этиш ва аҳоли бандлигига кўмаклашиш бўйича дастурларнинг ижроси юзасидан амалга оширилаётган ишлар тўғрисида”ги Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг депутатларига ахбороти // parliament.gov.uz/uz/events/chamber/39068.
 20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 01.03.2022 yildagi PQ-149-son.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000